

CHINGIZ AYTMATOVNING “JAMILA” QISSASIDAGI SIMBOLIZMLAR TAHLILI XUSUSIYADA

Karimova Dilshoda.

Andijon davlat chet tillari instituti, IF-204 gurux, tala basi.

Abduqayumova Feruza

Andijon davlat chet tillari instituti, XTA-209 gurux, tala basi

Turgunov D.B.

Andijon davlat chet tillari instituti, o`qituvchisi.

Annotasiya: Maqolada atoqli qirg`iz yozuvchisi Chingiz Aytmatovning asarlarida simbolizmlarning o`ziga xos jihatlari, ifoda vositalari va jonlantiruvchi konseptlari tahlil qilinadi. Aytmatov modernizm adabiyoti vakili sifatida muallif g`oyasi va asar mavzusini aks ettirishda simbolizm metodidan keng foydalanganligi bois, ularning yozuvchi ijodida tutgan o`rnini ko`rsatib berish dolzarb mavzu sanaladi.

**Kalit so`zlar:** *simbolizm, simbolik ifoda, syujet liniyasi, badiiy g`oya, badiiy obraz, obrazlar kolliziyasi.*

Abstract: *The article outlines some specific features of characterizing certain concepts and their symbolic expressions in the fictions by Chingiz Aytmatov, a great writer of contemporary Kirgiz literature. The writer as a representative of Modernistic fiction widely used symbolisms to underline the main idea and theme of his works and consequently it outline the importance of the current article.*

Key words: *symbolism, symbolic expression, plot linear, idea of the fiction, literary character, collision of characters.*

Ch.Aytmatov modernist yozuvchi sifatida o`zi yashab turgan jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy o`zgarishlarga munosabatini aks ettirishda simbolizmlardan keng foydalangan. Modernizmning o`ziga xos belgisi bo`lgan simbolizm – boshqacha qilib aytgandi jamiyatdagi tushunchalarni boshqa tushunchalar bilan majoziy ifoda qilish bilan xarakterlanadi. Bu janrda ijod qilgan yozuvchilar jumladan J.Orvelning “Molxona”(Animal Farm) K.S.Lyuisning “Narniya yilnomasi” (Narnian Chronicles) asarlarida hayvonlar, R.Tolkenning asarlarida *xobbitlar, orklar* kabi to`qima obrazlar orqali amalga oshirilishi an`anaga aylangan. Bu xususiyat Ch.Aytmatov ijodida ham ko`p kuzatiladi. Xususan uning “Jamila” qissasida ham simbolik elementlardan keng foydalanilgan. Izlanishlarimiz davomida bu qissaning nafaqat “sevgi-muhabbat”, “hayot uchun kurash”<sup>13</sup> mavzularidan farqli ravishda “avlodlar to`qnashuvi”(Generation gap)¹⁴ yoki boshqacha qilib aytganda jamiyatning turli davrlarida tarbiyalangan avlodlar o`rtasidagi ziddiyatlar, undagi ijtimoiy-siyosiy o`zgarishlarga nisbatan muallifning pozitsiyasi va gumanistik g`oyalari aks ettirilgan degan xulosaga keldik. Xususan

¹³ Акматалиев А. А. Чингиз Айтматов : Человек и Вселенная : монография / НАН Кырг. Респуб. - Б. : Илим, 2013. - 576 с.

¹⁴ Абдыраманова А. Ш. Взаимодействие и взаимосвязи фольклора и литературы в творчестве киргизских писателей / А. Ш. Абдыраманова // Вестник МГЛУ. - М. : Изд-во МГЛУ, 2013. - № 23 (683). - С. 122-128.

“Jamila” qissasida bosh g'oya sifatida “tarixan shakllangan milliy-ma'naviy qadriyat va an'analar bilan yangi paydo bo'layotgan ommaviy madaniyat o'rtasidagi kurash”¹⁵ tasviri berilgan. Bu ayniqsa asarning 20 asrning o'rtalariga kelib G'arb va Sharq madaniyatlari o'rtasidagi ziddiyatning kuchayishi jarayonida yuzaga kelgani bilan ham izohlanadi. Qissada qo'llanilgan simbolizmlar aksariyat asar qahramonlari bilan bog'liq bo'lib, asosan quyidagi tushunchalarni aks ettiradi. Bu xususiyat quyidagi jadvalda yaqqol o'z aksini topadi.

Badiiy obraz	Simbolik ifodasi
<i>Seit</i>	Evropacha madaniyat Kelajak kishilari prototipi
Ovul odamlari va xalq	SHarqona madaniyat Urf-odatlariga tayanib yashovchi o'tmish
Qarindoshlar tushunchasi	Tarixiy o'zak yoki an'analar ifodasi
Quyosh va tabiat hodisalari	Kelayotgan ertangi kun, kelajak.
<i>Jamila</i> va <i>Doniyor</i>	Evropalishib borayotgan kishilar

Bunda *Doniyor* – yangi paydo bo'layotgan “xippi”, “ommaviy madaniyat” yoki Evropa madaniyatini ifoda qiladi. Doniyorga qarshi qo'yilgan kuch, ya'ni Sharqona madaniyat, milliy qadriyatlarga yo'g'irilgan ma'naviy esa ovuldagi aholi yoki uning atrofidagi kishilar orqali yordamida ifodalangan. Qolaversa asardagi hikoyachi bo'lgan *Seit* ham majoziy obraz bo'lib, ikki madaniyatlar o'rtasidagi kurashda “voyaga etayotgan yosh avlod”ni ifoda qiladi. O'z navbatida asosiy qahromanlardan biri bo'lgan *Jamila* – Sharq madaniyatidagi “ma'naviyat”ning o'ziga xos talqini sifatida e'tirof etilishi mumkin. Ze'ro asarda “kelinga qo'riqchi qilingan Seit” obrazi meros sifatida saqlanishi lozim bo'lgan “milliy ma'naviyat”ni qo'ldan boy bergan “kelajak avlod”ga juda mos keladi.

Ch.Aytmatov *Doniyor* obrazini jonlantirish davomida “ommaviy madaniyat”ga xos bo'lgan ko'plab jihatlaridan foydalangan. Jumladan G'arb madaniyatining ma'naviy asosi yo'q ekanligi Doniyorning “kimligi, qaysi urug'dan ekani noma'lum”¹⁶ ekanligi orqali “g'oyasidagi ma'naviy qashshoq”ligi va Doniyorning “oqsoq”, “o'roqqa yaramaydigan”, “odamovi kishi” ko'rinishida tasvirlash orqali aks ettirishga harakat qilgan. Bu jihatlar ayniqsa quyidagi epizodlarda yaqqol seziladi. *Uni o'roqqa yaramaydigan bo'lgani uchun biz bilan birga mashinaga qo'yishdi.* (Aytmatov. *Jamila*. 8-bet); *Ular Doniyorning etti pushtini surishtirib, uning qaysi urug'dan ekanligini, ovuldagi ba'zi bir tug'ishganlarining kimligini ham aytib berishdi. Xullas, ovuldagilar: «Doniyor dunyoga yangi kelgandek bo'ldi», deyishadigan bo'lishdi.* (Aytmatov. *Jamila*. 8-bet)

Yozuvchi asar yaratilgan davrda ommaviy madaniyatning keng tarqalishi, jamiyatning barcha jabhalariga kirib borishida kishilarning loqaydligi katta rol o'ynaganligini tushunib

¹⁵ Демченко Л. Н. Творчество Чингиза Айтматова в аспекте художественной антропологии / Л. Н. Демченко // Филология и человек. - Барнаул : Изд-во АГУ, 2014. - № 1. - С. 83-92.

¹⁶ Абдыраманова А. Ш. Взаимодействие и взаимосвязи фольклора и литературы в творчестве киргизских писателей / А. Ш. Абдыраманова // Вестник МГЛУ. - М. : Изд-во МГЛУ, 2013. - № 23 (683). - С. 122-128.

etgan edi¹⁷. Bu g'oya ayniqsa uni ifoda qilayotgan timsol hisoblangan Doniyor obrazi tasvirida yaqqol seziladi.

Bora-bora kishilar Doniyorga ko'nikib qolishdi shekilli, uni boshqa gap qilmaydigan bo'lishdi. Odamlarning u bilan ishi bo'lmay qo'ydi. (Aytmatov. Jamila. 10- bet)

Aytmatov birinchilardan bo'lib G'arb madaniyatiga ko'r-ko'rona ergashish, unga taqlid qilish yoki unga nisbatan beparvolik jamiyatni tubanlikka olib borishi o'z vaqtida bashorat qilingandi.

Doniyorning orqasidan kelayotgan odamlar ham noiloj u to'xtaganda to'xtab, u yurganda yurishardi. Ularning ham tinkasi qurib, qora tergu botib ketishgandi. Biroq ulardan bittasi ham Doniyor bilan sen-menga bormadi. Ular toyg'oq yo'ldan go'yo bir-birlariga ko'rinmas ip bilan boglangandek tumaqator bo'lib jim borishardi. Bordi-yu, bittasi toyib ketgudek boisa, boshqalar ham xarob bo'ladigandek tuyulardi. Ularning indamay qadam tashiashlarida, bir xil chayqalishlarida kuchli g'ayrat va shijoat, hamkorlik sezilib turardi. Doniyorning orqasidan kelayotgan ayolning oyog'i chalishib, yiqilishiga sal qoldi-yu, shunda ham u o'ziga emas, Doniyorga xudodan madad so'rayotgandek unga rahmdillik bilan termilib qaraydi. (Aytmatov. Jamila. 14- bet)

Doniyorning “toyg'oq yo'ldan” ketayotgani, uning “orqasidan kelayotgan ayolning oyog'i chalishib, yiqilishi” aynan g'arblashish natijasida sharqona ma'naviyat va ta'lim tarbiyaning yo'qolishiga olib kelishi ko'rsatib berilgan nazarimizda.

Doniyor obrazida ommoviy madaniyatning yana biri o'ziga xos jihati aks ettirilganini kuzatishimiz mumkin. G'arb madaniyatining shakllanishi va tarqalishida turli g'oyalar, turmush tarzi, kino va televileniya bilan bir qatorda aynan “g'arb musiqa”si sifatida tan olinadigan “rokenrol, pop musiqa”¹⁸ alohida o'rin egallagan edi. Chunonchi asarda ham Doniyor va Jamila o'rtasidagi ilk munosabatlar ham ashula orqali amalga oshirilgan. O'z navbatida Doniyorning qo'shiqlari ham evropa musiqasidan “so'zi yo'q”, “kuy so'zsiz” bo'lib, aksariyat hollarda “qirg'izcha ham, qozoqchaga ham o'xshamaydigan” “chet elniki ekanligi” bu fikrni isbotlashi mumkin.

Unda deyarli so'z yo'q, lekin bu kuy so'zsiz ham samimiy, sof niyatli qalb egasining butun quvonchi, umid-orzulari va tilaklarini ifodalab berardi. Men umrim bino bo'lib bunday kuyni eshitgan emasman. U qirg'izchaga ham, qozoqchaga ham o'xshamasdi, biroq... (Aytmatov. Jamila. 7- bet.)

Yozuvchi bunday qo'shiqlarni ommolashib ketganligi, hamma joyda “milliy musiqa o'rnini egallagani”ga alohida e'tibor berib, ularning salbiy ta'sirini quyidagi epizodlarda ko'rsatib bergan edi.

Uning ashulasi yurak-yuragimga singib, qaerga bormay, qaerda turmay, qulog'im tugida jaranglayotgandek boqardi. (Aytmatov. Jamila. 21-bet).

¹⁷ Смирнова А. И. Онтологическая поэтика Ч. Айтматова / А. И. Смирнова // Филология и культура. - Казань : Изд-во КФУ, 2014. - № 1 (35). - С. 208-214.

¹⁸ Демченко Л. Н. Творчество Чингиза Айтматова в аспекте художественной антропологии / Л. Н. Демченко // Филология и человек. - Барнаул : Изд-во АГУ, 2014. - № 1. - С. 83-92.

Ko'zlarimni yumib Doniyorning ashulasiga quloq solar ekanman, ona suti bilan qonimga singib, bir qarichligimdan tanish bo'lgan manzaralar ko'z o'ngimdan birma-bir o'ta boshlardi. Goh ovulning zumrad osmonidan pag'a-pag'a bulutlar suzib o'tishar, goh o'tlab yurgan yilqilar uyuri dukurlashib, kishnashib yaylovda chopib qolishar, qulunlar kokillarini o'ynatib qop-qora ko'zlarini jovdiratganlaricha onalarini qidirishib qolar, goh suruv-suruv qo'ylar tepaliklarda o'tlab yurishar, goh qoyalardan oqib tushayotgan shalola ovnadek varqirab ko'zlarni qamashtirar, dengizdek mavjlanib yotgan qamishzorlar orasiga cho'kib borayotgan quyoshni lolarang ufq sari yo'ritib borayotgan yolg'iz otlig mana hozir qo'li bilan ushlab oladigandek bo'lib tuyulardi, keyin o'zi ham quyosh bilan birga butalar orasiga kirib g'ovib bo'lardi. (Aytmatov. Jamila. 17-bet)

Asar turli simbolizmlarga to'la bo'lib, unda yangi ma'naviyatsiz madaniyatning milliy madaniyat kushandasi ekanligini, undan faqatgina milliy qadriyatlar himoyasida omon qolish mumkinligini yozuvchi "Doniyorning ashulasi eshitganda" "*onalarini qidirib qoladigan qulunlar*" misolida kelajak avlodning Evropa madaniyatidan o'z milliy qadriyatlariga qaytibgina qutulib qolishini, "*ovulning zumrad osmonidan pag'a-pag'a bulutlar*" paydo bo'lishi ifodasida jamiyatdagi buzg'unchilik, "*cho'kib borayotgan quyoshni lolarang ufq sari yo'ritib borayotgan yolg'iz otlig*" misolida undan "qochmoqchi bo'lgan kishilar"ni ko'rsatib berishga harakat qilgan¹⁹.

Ana shunday simbolizm Seit obrazi orqali ifodalangan "kelajak avlodni" o'z ma'naviy o'zaklarini yo'qotishi qanday ayanchli oqibatlariga olib kelishini quyidagi epizodda yaqqol kuzatamiz.

Ana shunday qilib, biz birinchi marta alohida-alohida ketdik. (Aytmatov. Jamila. 26-bet)

Bu ajralish, ya'ni xalq va avlodlarning ma'naviy asosini yo'qotishi fojeaga olib borishi keyingi epizodda "ufqning qizil bulutlar", ya'ni qon bilan qoplanishi tasviri shunga havola qilinadi. *Uzoqda, ufq tepasida qizil-sur bulutlar yig'ila boshladi.* (Aytmatov. Jamila. 27-bet)

Qolaversa Ch.Aytmatov bu asarida majoziy ifodalar va ular orqali gavdalanitiriladigan tushunchalar tizimida nafaqat qahramonlaridagina emas, balki tabiat hodisalaridan ham keng foydalangan. Xususan ovul, tog'lar, yaylov ifodalarida bevosita kishilik jamiyati aks ettirilgan bo'lsa, chaqmoq, yashin, quyosh botishi, bulutlar va to'fonlar kabi tabiat hodisalaridan nafaqat obraz hissiyotlaridagi tug'yonlarnigina emas, balki jamiyat va olamda yuz berayotgan voqea-hodisalarni ham ko'rsatib bergan²⁰. Jumladan Jamila va Doniyorning ilk uchrashuvi tasvirlangan epizodda bu o'zgarishning qanchalar mudhish ekanligi aynan "yashin va mamaqaldiriq" orqali ifodalangan.

¹⁹ Гахрама Каламкас. Символ горы в романе Ч. Айтматова «Когда падают горы» [Электронный ресурс] / Каламкас Гахрама. - Режим доступа : // www.rusnauka.com/23_NTP_2010/Philologia/50523.doc.htm

²⁰ Baxodirovich, T. D. (2025). INGLIZ VA OZBEK TILIDAGI MULOQOTLARDA "GAZAB" KONTSEPTINI VOQELANTIRUVCHI NOVERBAL VOSITALARNING LINGVOKULTUROLOGIK JIHATLARI TAHLILI. *FARS International Journal of Education, Social Science & Humanities.*, 13(1), 167-170.

Tog'lar ustida yashin gumburladi. Jamila cho'chib yalt etib qaraganida, yashin uning yuzini yoritib yubordi. (Aytmatov. Jamila. 27-bet)

Chaqqoq bulutlar orasida ko'kintir iz qoldirib, qarag'ay singandek qasira-qusur qilib hamma yoqni larzaga soldi. A'zoyi badanim titrab, ham qo'rqib, ham quvonib ketdim. Momaqalldiroq, yozning oxirgi momaqalldirog'i yopirilib kelar, ilk kuz nafasi dimoqqa urilardi. Endi Jamilani hech qanday kuch to'solmasdi. (Aytmatov. Jamila. 27-bet)

Qolaversa “yozning oxiri” ma'naviyatning halokatini, “kuz nafasi” esa ommaviy yoki G'arb madaniyati ta'sirida jamiyatda paydo bo'lgan “halokat”ga ishora qiladi. Bunday g'arblashishning salbiy oqibatlarini bugungi kunga kelib yanada dolzarblashmoqda. O'z davrida yozuvchi bunday falokatlarni oldini olishning yagona yo'li ma'rifat ekanligini kelajak avlodni aks ettirayotgan Seitni “maktabga borishi” bilan izohlagan edi. Ze'ro bugungi kunda ommaviy madaniyat, ma'naviy tubanlik va qashshoqlikka qarshi kurashdagi en muhim qo'rol ma'rifat va ta'lim-tarbiya ekanligi o'z isbotini topmoqda.

O'sha kuzda men ikki yillik tanaffusdan keyin yana maktabga qatnay boshladim. (Aytmatov. Jamila. 28-bet)

Aynan ma'rifatgina “tugunchak” timsolidagi milliy qadriyatlarni “ko'tarib olgan Jamila, ya'ni “ma'naviyat”ni Doniyor aks ettirgan yot g'oya va ommaviy madaniyat “xaltasi” ortidan ko'r-ko'roni ergashishdan to'xtatib tura oladi.

Jamila bo'lsa egniga bozorga borganda kiyadigan parcha-parcha qizil gullik ko'yilagini, chiybaxmal choponini kiyib, boshiga oq jun ro'molini o'rab olgandi. Bir qo'lga tugunchak ko'tarib, ikkinchi qo'li bilan Doniyorning xaltasidan ushlab bormoqda. Ular yo'l-yo'lakay nimalar to'g'risida o'zaro gapirishib borishardi. Ularning ovulimizni tashlab, qayoqqadir ketishayotganini sezib, yuragim «jiz» etib ketdi. (Aytmatov. Jamila. 28-bet)

Aks holda “ma'naviyat(Jamila)” ham “kelajak(Seit)” ham “madaniyat(ovul)imiz” uzoqlashib “ketib”, kelajak avlod Seit singari “ko'p yig'lash” qolishiga sabab bo'ladi.

Yuzimni ko'z yoshidan ho'l bo'lib ketgan engimga artib, yana anchagacha yig'lab o'tirdim. Men faqat Jamilalar bilangina emas, balki o'zimning bolalik davrim bilan ham xayrlashar edim. Qorong'ida timirskilanib uyga kelganimda hovlimizda shovqin-suron avjida edi. (Aytmatov. Jamila. 29-bet.)

Chingiz Aytmatov asarlari tahlili yuzasidan olib borilgan izlanishlarimizga asoslangan holda yozuvchining ilgari surgan g'oyasini aniqlash va xulosa chiqarishda ulardagi simbolik elementlar ifodasi alohida o'rin egallaydi. Ze'ro adibning aksariyat asarlarida simbolik ifodalar qo'llanilganligi bois ularni asliy ma'nolarida emas, balki ko'chma tasviriy ifodalariga urg'u berish lozim bo'ladi. Simbolizmlarni to'g'ri anglash uchun modernizm yo'nalishidagi an'anaviy jonlantirishga e'tibor qaratish zarur degan xulosaga kelamiz.

1. Абдыраманова А. Ш. Взаимодействие и взаимосвязи фольклора и литературы в творчестве киргизских писателей / А. Ш. Абдыраманова // Вестник МГЛУ. - М. : Изд-во МГЛУ, 2013. - № 23 (683). - С. 122-128.
2. Акматалиев А. А. Чингиз Айтматов : Человек и Вселенная : монография / НАН Кырг. Респуб. - Б. : Илим, 2013. - 576 с.
3. Гакрама Каламкас. Символ горы в романе Ч. Айтматова «Когда падают горы» [Электронный ресурс] / Каламкас Гакрама. - Режим доступа : // www.rusnauka.com/23_NTP_2010/Philologia/50523.doc.htm
4. Демченко Л. Н. Творчество Чингиза Айтматова в аспекте художественной антропологии / Л. Н. Демченко // Филология и человек. - Барнаул : Изд-во АГУ, 2014. - № 1. - С. 83-92.
5. Матвейчук В. В. Композиция романа Ч. Айтматова «Когда падают горы (Вечная невеста)» [Электронный ресурс] / В. В. Матвейчук // Электронный научный журнал. Язык. Культура. Коммуникации. - 2015. - № 1. - Режим доступа : journals.susu.ru/lcc/article/view/319/396
6. Смирнова А. И. Онтологическая поэтика Ч. Айтматова / А. И. Смирнова // Филология и культура. - Казань : Изд-во КФУ, 2014. - № 1 (35). - С. 208-214.
7. Baxodirovich, T. D. (2025). INGLIZ VA OZBEK TILIDAGI MULOQOTLARDA “GAZAB” KONTSEPTINI VOQELANTIRUVCHI NOVERBAL VOSITALARNING LINGVOKULTUROLOGIK JIHATLARI TAHLILI. *FARS International Journal of Education, Social Science & Humanities.*, 13(1), 167-170.